

SIYOSIY E'TIQOD TIZIMI VA UNING FALSAFIY TALQINI

Shernazarov Ravshan Avazovich

Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Navoiy, O'zbekiston

Annotatsiya: *Siyosiy e'tiqod bu siyosat, iqtisod, davlat va jamiyat tuzilishi, jamiyatda qonun va xulq-atvor qanday bo'lishi kerakligi haqidagi e'tiqod va qarashlar majmui yoki tizimini tashkil etadi. Siyosiy e'tiqod shaxsning turli shaxsiy e'tiqod shakllari - uning e'tiqodi yoki dini, shaxsiy axloqi va qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur maqola siyosiy e'tiqod mazmuni va shakllanishi mexanizmini tadqiq etishga bag'ishlanib, siyosiy e'tiqod falsafiy mazmuni ilmiy manbalar asosida konseptual tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *dunyoqarash, fenomen, falsafa, axborot, qadriyat, jamiyat, entuziazm*

ПОЛИТИЧЕСКАЯ СИСТЕМА УБЕЖДЕНИЙ И ЕЕ ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ

Шерназаров Равшан Авазович

**Научный исследователь Навоийского государственного
педагогического института**

Навои, Узбекистан

Аннотация: *Политические убеждения - это совокупность или система убеждений и взглядов на политику, экономику, структуру государства и общества, право и поведение в обществе. Политические убеждения тесно связаны с различными формами личных убеждений человека - его верой или религией, личной моралью и ценностями. Данная статья посвящена исследованию содержания и механизмов формирования политических убеждений, а также концептуально анализируется философское содержание политических убеждений на основе научных источников.*

Ключевые слова: *мировоззрение, феномен, философия, информация, ценность, общество, энтузиазм*

POLITICAL PERSUASIONS AND ITS PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Shernazarov Ravshan Avazovich

Researcher of Navoi State Pedagogical Institute

Navoi, Uzbekistan

Annotation: *Political persuasions are a set or system of beliefs and views on politics, economics, the structure of the state and society, law and behavior in society. Political persuasions are closely related to various forms of a person's personal persuasions - his faith or religion, personal morals and values. This article is devoted to the study of the content and mechanisms of formation of political persuasions, and also conceptually analyzes the philosophical content of political persuasions based on scientific sources.*

Key words: *worldview, phenomenon, philosophy, information, value, society, enthusiasm*

Kirish

Inson dunyoqarashi silsilalarini tadqiq qilgan mutaxasislarning deyarli barchasi uning tasavvurlari va tajribalari, bilimlari va qarashlari dunyoqarash negizida iroda bilan qo'shilib, o'ziga xos fenomenni vujudga keltirishini tavsiflaydilar. Masalan, nemis faylasufi va teologi F. Shleyermaxer o'zining 1799 yilda yozilgan "Din haqidagi nutqlar" nomli asarida inson olamning passiv kuzatuvchisi yoxud faol o'zlashtiruvchisi bo'lishi mumkinligini qayd qiladi. Passiv kuzatuvchanlik obyektiv reallikda sodir bo'layotgan voqea va jarayonlarni shunchaki kuzatish bilan xarakterlanadi. Bundan farqli o'laroq, olamni faol o'zlashtirgan inson ongida turfa ma'lumotlar, tasavvurlar, bilimlar, qarashlar, qadriyatlar, g'oyalar qaror topa boradi. Shuningdek, ushbu ma'lumot va bilimlar, tasavvur va qarashlar, g'oyalar va qadriyatlar vaqt o'tishi bilan o'zaro uyg'unlashib, yaxlit fenomenni hosil qiladi [1].

Adabiyotlar tahlili

Inson dunyoqarashida yuz beradigan mazkur evrilish ko‘plab faylasuflar – F.Gegel, S.Kyerkegor, F.Nitshe, U.Diltey, A.Bergson, M.Sheler, S.L.Frank, V. S. Solovyev, N. A. Berdyayev asarlarida ham e’tirof etilgan [2-9].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot olib borish davomida analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar

Dunyoqarashning turli tarkibiy elementlari sintezi natijasida hosil bo‘lgan ushbu fenomen milliy falsafalarda turlicha nomlanadi. Masalan, ingliz tilidagi manbalarda buning uchun “persuasion” tushunchasi, rus tilidagi manbalarda “убеждений” tushunchasi qo‘llaniladi. O‘zbek tilida bu o‘rinda “e’tiqod” tushunchasi ilmiy muomalaga kiritilgan. Professor Q.Nazarovning “Jahon falsafasi qomusi”da ta’kidlanishicha, “e’tiqod – muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur tarzini ifoda etuvchi tushunchadir” [10].

Inson e’tiqodi yaxlit fenomendir. Boshqacha aytganda, u o‘zlashtirgan axborotlar va bilimlar, tasavvurlar va qarashlar, bu bilim va tasavvurlar asosida shakllangan qadriyatlar va g‘oyalar yagona e’tiqodni yuzaga keltiradi. Lekin masalaning o‘ziga xos tomoni shundaki, e’tiqodning bu elementlari turli sohalarga – siyosat, huquq, axloq, nafosat, din, falsafa, fan va boshqalarga dahldor bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tadqiqotchilar inson e’tiqodining siyosiy aspektini nazarda tutganda “siyosiy e’tiqod” tushunchasidan, huquqiy aspektini nazarda tutganda “huquqiy e’tiqod” tushunchasidan, axloqiy aspektini nazarda tutganda “axloqiy e’tiqod” tushunchasidan, estetik aspektini nazarda tutganda “estetik e’tiqod” tushunchasidan, diniy aspektini nazarda tutganda “diniy e’tiqod” tushunchasidan, falsafiy aspektini nazarda tutganda “falsafiy e’tiqod” tushunchasidan, ilmiy aspektini nazarda tutganda “ilmiy e’tiqod” tushunchasidan foydalanadilar.

Shu boisdan ushbu tushunchalarga qarab inson dunyoqarashi turfa e’tiqodlardan tarkib topadi, degan xato xulosaga kelmaslik lozim. Ushbu tushunchalar inson yaxlit e’tiqodining turli rakursleri ifodasidir, xolos. Tadqiqot

ob'yektiga dahldor bo'lmagani tufayli e'tiqodning boshqa shakllarini ta'riflab va tavsiflab o'tirmasdan, bevosita ilmiy ishimizning markaziy tushunchasi – "siyosiy e'tiqod" mazmunini va shakllanishi mexanizmini ochib berishga kirishamiz.

Ma'lumki, dunyoqarashning hissiy va aqliy asoslari mavjud. Uning hissiy asosi insonning olam haqidagi tasavvurlarini, aqliy asosi esa – olam to'g'risidagi tushuncha va qarashlarini vujudga keltiradi [11]. Binobarin, inson dunyoqarashining negizi bo'lmish siyosiy e'tiqodning shakllanishi jarayoni ham ikki tayanch nuqtadan boshlanadi. Bu tayanch nuqtalarining biri siyosiy tuyg'ular, kechinma va tasavvurlar bo'lsa, ikkinchisi – siyosiy ma'lumotlar va axborotlardir. Boshqacha ifodalaganda, shaxs siyosiy e'tiqodi uning siyosiy tuyg'ulari va ma'lumotlari negizida qaror topa boshlaydi.

Siyosiy e'tiqodning shakllanishi mexanizmini harakatga keltiradigan ilk tayanch nuqta siyosiy tuyg'ulardir. Siyosiy tuyg'ular jamiyatning siyosiy borlig'ini hissiy aks ettirish natijasida yuzaga kelgan sezgilardir. Siyosiy tuyg'ular insondan tashqarida turgan siyosiy voqelikda ro'y berayotgan va inson ongi-shuurida o'z aksini topayotgan jarayonlar ta'sirida qaror topadi. Bu tuyg'ular insonning turli siyosiy voqea va jarayonlarga hissiy munosabatini vujudga keltiradi. Ushbu hissiy munosabat shaxs ruhiyatining muhim tarkibiy elementi bo'lmish siyosiy kechinmalarda o'z ifodasini topadi. Siyosiy kechinmalar, shunday qilib, insonning siyosiy jarayonlarga emosional munosabati ifodasidir.

Biroq turli siyosiy jarayonlar shaxs ongida turlicha aksini topishini ham inobatga olmoq darkor. Xususan, ayrim jarayonlar shaxsda negativ kechinmalarning qaror topishiga sabab bo'ladi. Davlatning nomaqbul siyosiy faoliyati, siyosiy inqiroz yoxud ayanchli siyosiy voqea inson ongida salbiy siyosiy kechinmalarni tug'diradi. Masalan, adolatsiz, jamiyat a'zolarining siyosiy manfaatlariga mos bo'lmagan davlat siyosati, siyosiy turg'unlik kishilarda siyosiy loqaydlikni yuzaga keltirishi mumkin. Bunday vaziyatda odamlar davlat e'tirof etgan siyosiy maqsad-muddaolarga ishonmay qo'yadilar, siyosiy jarayonlarda ishtirok etishdan voz kecha boshlaydilar. Salbiy siyosiy kechinmalarning

umumijtimoiy miqyosda ildiz otishi odatda davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqadorlikning buzilishiga sabab bo'ladi.

Aksincha, hukumat adolati, muayyan siyosiy dasturlarning muvaffaqiyatli ro'yobi, shaxs uchun qadrlı bo'lgan siyosiy guruhlar yoxud arboblarning zafarlari ijobiy siyosiy kechinmalarni vujudga keltiradi. Davlat siyosatining xalq manfaatlari sari yo'naltirilishi, milliy manfaatlarga mos bo'lgan siyosiy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, xalq ulug'lagan arboblarning siyosiy iqtidorga kelishi hamisha vatanparvarlik, entuziazm, siyosiy eyforiya, siyosiy optimizm kabi kechinmalarning rivoj topishiga olib keladi. Negativ siyosiy kechinmalar kelgusida g'ayriinsoniy siyosiy e'tiqodlarning, pozitiv siyosiy kechinmalar esa insonparvar siyosiy e'tiqodlarning qaror topishiga zamin yaratadi.

Siyosiy tuyg'ular va kechinmalar shaxs siyosiy e'tiqodini shakllantiruvchi hissiy asos bo'lsa, uning aqliy asosi siyosiy axborotlar va ma'lumotlar bilan bog'liq. Siyosiy axborot – siyosiy voqelik, unda yuz bergan siyosiy jarayon, voqeaga doir ma'lumotlar yig'indisidir. U mazmunan boyligi va tarkiban murakkabligi bilan tavsiflanadi. Masalan, u davlat ichki va tashqi siyosati mazmuniga, saylov jarayonlariga, siyosiy institutlar faoliyatiga, xalqaro siyosiy munosabatlarga, inson huquqlari va demokratiya asoslariga va hokazolarga dahldor bo'lishi mumkin.

Bugun hayotimizda siyosiy axborotning ijtimoiy ahamiyati beqiyos. U jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi va jamiyat siyosiy hayotini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi qadriyat hisoblanadi. Biroq biz uning shaxs ma'naviy olamidagi o'rni va roli bilan bog'liq jiha-tiga e'tiborni qaratamiz. Siyosiy axborotlarning o'zlashtirilishi nafaqat shaxs siyosiy xabardorligi darajasini oshiradi, balki unga jamiyatda jamlangan siyosiy tajribalarni o'zlashtirish, siyosiy hayotga moslashish, siyosiy ijtimoiylashish imkonini ham beradi.

Shaxs siyosiy tuyg'ulari va kechinmalari, siyosiy axborotlari va ma'lumotlari shaxs siyosiy bilimlarining shakllanishiga turtki beradi. Siyosiy bilimlar mazmunini "bilim" tushunchasi definisiyasiga asoslangan holda ochib bersak. Ma'lumki, "bilim – borliqning ideal obrazi, inson ongi va tafakkurining

ijtimoiy-tarixiy amaliyotda tekshirilgan va mantiqan tasdiqlangan, voqelikning bilish jarayonida erishilgan natijasi, shu voqelikni inson ongida tushunchalar, muhokama va nazariyalar orqali ifodalangan in'ikosi, kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qil-gan ma'lumotlari, voqelikning inson tafakkurida aks etishi" [10.169]. Mazkur ta'rif asosida fikrlaydigan bo'lsak, siyosiy bilimlar – hissiy in'ikos hamda siyosiy tafakkur natijasida yuzaga kelgan, haqqoniyligi nazariy jihatdan isbotlangan va siyosiy amaliyotda aprobatsiyadan o'tgan siyosiy tushunchalar, siyosiy mulohazalar va siyosiy xulosalardir.

Siyosiy bilimlar siyosiy tuyg'ular va kechinmalar negizida shakllanadi. Chunki jamiyatning siyosiy borlig'ini, unda kechayotgan jarayonlarni bilish uchun avvalo uni hissiy in'ikos etmoq lozim. Aynan inson his-tuyg'ulari uni jamiyat siyosiy borlig'i bilan bog'lab turadi. Siyosiy sezgisiz, siyosiy idroksiz siyosiy bilim ham hosil bo'lmaydi, albatta. Biroq siyosiy bilimlarning vujudga kelishi va shakllanishi jarayonida siyosiy axborot-lar va ma'lumotlar ayricha o'rin tutadi. Aynan ular kelgusida shaxs siyosiy bilimlariga aylanadi. Lekin bundan shaxs o'zlashtirgan har qanday siyosiy axborot kelgusida siyosiy bilim sifatida qaror topadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Umumlashtirilgan va tekshirilgan, tizimlashtirilgan va nazariylashtirilgan, muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan siyosiy axborot va ma'lumotlarga siyosiy bilim darajasiga ko'tariladi. Juz'iy xarakterga ega bo'lgan, ilmiy zamindan yiroq, ahamiyatsiz axborotlar bilim bo'lishi mumkin emas.

Siyosiy axborotlar siyosiy bilimga aylanishi uchun o'zlashtirilgan axborotlardan dunyoqarashni kengaytiradigan xulosalar chiqarilmog'i lozim. Chunonchi, xotirani to'ldirgan ko'plab faktlaru-ta'riflar o'z-o'zidan siyosiy bilimga aylanib qolavermaydi. Bu fakt va ta'riflar, ma'lumotlar qat'iy tizimga solinsagina siyosiy borliq, uning ravnaqiga doir ob'yektiv qonu-niyatlar haqida yaxlit tasavvur uyg'otadi. Shaxs o'zlashtirgan siyosiy bilimlar uning ma'naviy olamida yaxlit tizimga mujassamlashib, uning siyosiy tasavvurini yuzaga keltiradi.

Shaxs siyosiy tasavvuri uning siyosat, siyosiy tizim, davlat, jamiyat va hukumatning roli haqidagi barqaror qarashlari tizimidir. Siyosiy tasavvurning

mohiyati shundan iboratki, u siyosiy voqelikning in'ikosi bo'lib, shaxsning hokimiyatga, mavjud qonunchilikka, fuqarolik huquqlari va majburiyatlariga, o'zining jamiyatdagi o'rniga mu-nosabatini belgilab beradi.

Shaxs egallagan va uning siyosiy tasavvuri tarkibidan joy olgan siyosiy bilimlarning hammasi ham uning siyosiy e'tiqodiga aylanavermaydi. Siyosiy bilim shaxs siyosiy e'tiqodiga aylanishi uchun shaxs birinchi navbatda uni anglab yetishi, ya'ni mazmunini chuqur o'zlashtirishi, ijtimoiy ahamiyatini fahmlab olishi kerak. Fikrimizni shaxsning jamiyat siyosiy tizimi haqidagi bilimlari misolida asoslab bersak. Ma'lumki, har bir jamiyat o'z siyosiy tizimiga ega bo'ladi. Jamiyatning siyosiy tizimi - "jamiyatning muayyan siyosiy vazifalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy muassasalari majmuidir. Davlat, partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, shuningdek, siyosiy maqsadlarni ko'zlovchi barcha tashkilot va harakatlarni o'z ichiga oladi" [12]. Har bir mamlakat o'zining tabiiy, tarixiy va ijtimoiy realligiga monand bo'lgan o'z siyosiy tizimiga ega bo'ladi. Shaxs muayyan mamlakatda istiqomat qilishni, unda mehnat yoxud ijtimoiy-siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishni istar ekan, jamiyatning siyosiy tizimi haqidagi bilimlardan voqif bo'lmog'i, ya'ni davlat va hokimiyat tuzilishini, jamiyatda harakatda bo'lgan siyosiy institutlar majmuini bilmog'i shart, albatta. Lekin bu bilimlar hamisha ham siyosiy e'tiqod bo'lavermaydi. Buning uchun shaxs nafaqat jamiyat siyosiy tizimi haqidagi bilimlardan xabardor bo'lmog'i, balki nima sababdan mavjud ijtimoiy shart-sharoitlarda aynan ana shunday siyosiy tizim shakllanganini fahmlamog'i, tushunmog'i kerak.

Siyosiy bilimning siyosiy e'tiqodga aylanishi uchun uning mazmuni va ahamiyati anglab yetilishining o'zigina kifoya emas. Ayni paytda shaxs o'zi o'zlashtirgan siyosiy bilimlarning haqqoniyligi va umumijtimoiy manfa-atlar bilan sug'orilganiga amin bo'lmog'i, ishonmog'i ham lozim. U yoki bu siyosiy bilimning ob'yektiv xarakterga egaligi va to'g'riligi insoniyat tomo-nidan, ilm-fan tomonidan allaqachonlar isbotlab, konstatatsiya qilib bo'-lingan bo'lishi mumkin. Biroq shaxs ushbu haqiqatlarni o'zi uchun qayta kashf qilmas, ularning to'g'riligiga shaxsan amin bo'lmas ekan, uni e'tiqodiga aylantirmaydi.

Shaxs tomonidan haqqoniyligi qayta kashf qilingan siyosiy bilimlar uning uchun mutlaq siyosiy qadriyatga aylanadi. U o'z tahlili, faktlarni o'rganishi va dalillar to'plashi orqali muayyan siyosiy bilimning to'g'riligiga amin bo'lar ekan, ulardan turli qarorlar qabul qilishda, shaxsiy fikrlarini shakllantirishda, jamiyat hayotida ishtirok etishda foydalana boshlaydi. Boshqacha aytganda, haqqoniyligi aniqlangan siyosiy bilim shaxs uchun murakkab siyosiy muhitda harakat qilish, axborotlarni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va ijtimoiy-siyosiy masalalar yuzasidan o'z nuqtai-nazarini shakllantirish imkonini beradigan qadriyat darajasiga ko'tariladi.

Mohiyati va mazmuni tushunib yetilgan, haqqoniyligiga ishonch hosil qilingan siyosiy bilimlar shaxs ehtiyojlari va manfaatlariga mos tushsa, uni faoliyatda qo'llash istagi tug'iladi. Bunday holatda u shaxsning butun siyosiy faoliyatini yo'naltirib turgan, uni muayyan qoida va tamoyillarga bo'ysundiradigan siyosiy normaga aylanadi. Shaxs jamiyatdagi har qanday siyosiy faoliyatini aynan ana shu siyosiy normalar asosida amalga oshirishga odatlanadi, har qanday holatda ham ushbu normalardan chekinmaydi. Turfa siyosiy tuyg'ular va kechinmalar, siyosiy axborotlar ta'sirida yuzaga kelgan hamda "tushunish-ishonish-amalda qo'llash" chig'irig'idan muvaffaqiyatli o't-gan siyosiy bilimlarga shaxs siyosiy e'tiqodining asosini tashkil etadi.

Xulosalar

Shunday qilib, siyosiy e'tiqod – hissiylik (siyosiy tuyg'ular va kechinmalar) va aqliylik (siyosiy axborotlar va ma'lumotlar) sintezi sifatida yuzaga kelgan, shaxs tomonidan mufassal fahmlab yetilgan, haqqoniyligiga ishonch hosil qilingan hamda amaliyotda qo'llana boshlangan siyosiy bilimlar yig'indisidir. "Siyosiy e'tiqodning muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u shaxsning siyosiy hokimiyatga, davlat ichki va tashqi siyosatiga munosabatini zuhur qiladi. Shuningdek, siyosiy e'tiqod shaxs siyosiy madaniyati-ning negizini tashkil etadi" [13]. Uning tarkibini quyidagi komponentlar majmui sifatida tasavvur qilish mumkin:

- bilish komponenti (siyosiy axborotlar, siyosiy bilimlar); siyosiy voqelik, unda yuz bergan siyosiy jarayonlarga doir ma'lumotlar, jamiyat siyosiy borlig'i xususiyatlarini o'zida in'ikos ettirgan tushuncha, mulohaza va xulosalar shaxs siyosiy e'tiqodining gnoseologik asosini yuzaga keltiradi;
- baholash komponenti (shaxsning o'z siyosiy kechinmalari va bilimlariga tayangan holda jamiyatdagi siyosiy jarayonlarga munosabati); shaxsning o'z siyosiy dunyoqarashidan kelib chiqqan holda turfa siyosiy voqea va jarayonlarga bergan bahosi shaxs siyosiy e'tiqodining aksiologik asosini qaror toptiradi;
- faoliyat komponenti (shaxsning o'z siyosiy kechinmalari va bilimlariga asoslangan holda siyosiy faoliyat ko'rsatish istagi); shaxsning mavjud siyosiy voqelikni o'z tasavvurlari va qarashlari, qalriyatlari va orzu-umidlariga monand ravishda o'zgartirish niyati, hohishi shaxs siyosiy e'tiqodining praksiologik asosini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шлейермахер Ф. Речи о религии к образованным людям ее презирующим.- СПб: Алетейя, 1994. -432с.
2. Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа.- М.:Наука, 2000. -495 с.
3. Ницше Ф. Так говорил Заратустра.- М.: Азбука, 2022. – 768 с.
4. Дильтей У. Типы мировоззрения и обнаружение их в метафизических системах.// Культурология. XX век: Антология. - М.: Юрист, 1995. -703 с.
5. Бергсон А. Творческая эволюция.- М.:Канон-пресс, 1998. -384 с.
6. Шеклер М. Философское мировоззрение.// Избр.произв.- М.: Гнозис, 1994. - 490 с.
7. Франк С.Л. Духовные основы общества.- М.: Республика, 1992.
8. Соловьев В.С. Оправдание добра.- М.: Алгоритм, 2012. - 510 с.
9. Бердяев Н.А, Философия свободы. Смысл творчества. Опыт оправдания человека.- М.: Академический проспект, 2015. – 522 с.
10. Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. Ж.2.- Т.:Ўзб.файл. миллий жам. нашр.- Маънавият, 2019.- Б.599.

11. Введение в философию// Под ред. И.Т.Фролова. Том 1.- М.: Республика, 2003.- С. 8-9.
12. Жамиятнинг сиёсий тизими.// qomus.info.
13. Чориев С.А. Сиёсий етук шахсни шакллантириш муаммолари: Фалс.ф.докт. дисс.- Т.:ЎзМУ, 2005.- Б.199.
14. Turdiyev, B. S. (2019). The role of national harmony in the strategy of spiritual renewal. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 229-233.
15. Sobirovich, T. B. (2023). Basic Criteria for Building the Third Renaissance in Uzbekistan. Asian Journal of Applied Science and Technology (AJAST), 7(1), 149-157.